

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BABAJanov SARVARBEK BEKPULATOVICH

**JAMOATCHILIK NAZORATINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-
HUQUQIY MEXANIZMLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Babajanov Sarvarbek Bekpulatovich

Jamoatchilik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari 3

Бабажанов Сарварбек Бекпулатович

Социально-правовые механизмы обеспечения общественного контроля..... 19

Babajanov Sarvarbek Bekpulatovich

Social and legal mechanisms for ensuring public control 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

BABAJanov SARVARBEK BEKPULATOVICH

**JAMOATCHILIK NAZORATINI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY-
HUQUQIY MEXANIZMLARI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2023

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.4.PhD/Fal640 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yazdonov Ulug'bek Toshmurotovich
falsafa fanlari doktori, (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Saidqosimov Akbar Isaxonovich
falsafa fanlari doktori, (DSc). professor

Nabiyev Farhod Hamidovich
tarix fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «___» _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40; ye-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (0366) 239-13-87, 239-11-40; faks: (0366) 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «___» _____kuni tarqatildi.
(2023-yil «___» _____dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R.Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon xalqlari hayotida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davlatchilik boshqaruvini demokratlashtirish, shaxs huquqiy ongini oshirish, insonda ijtimoiy faollik, shaxsiy mas'uliyat, daxldorlik hissini yuksaltirishga bo'lgan talablarni keltirib chiqarmoqda. Fuqarolarning jamiyat va davlat hayotini boshqarishdagi ishtirokini ta'minlash, ularning maqsad-muddaolarini boshqaruvning yuqori tizimlariga yetkazish, xalq bilan davlat o'rtasida konstruktiv aloqa o'rnatish, ijtimoiy, siyosiy barqarorlikka erishishda jamoatchilik nazorati tizimini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning jamiyat hayotini va kishilar dunyoqarashini yangilashga qaratilgan funksional xususiyatlarini hamda ularning g'oyaviy asoslarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo ilm-fanida samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlash mexanizmlari o'rtasidagi funksional integratsiyalashuvni topish, ularning ijtimoiy-huquqiy me'yorga keltirish borasida bir qator ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borilmoqda. Xususan, jamoatchilik nazoratini tashkillashtirish mexanizmlari o'rtasidagi deformatsiyalashuv jarayonini oldini olish, davlat idoralari ochiqligini ta'minlashga to'siq bo'lib kelayotgan dezinformatsion axborot xurujiga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish, davlat boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini oshirish, "xalq xabardorligi", "fuqaroviy nazorat", "jamoatchilik institutlari mas'uliyati", "jamoatchilik fikrini boshqarish" kabi institutsional tizim elementlari samaradorligiga erishish masalalari shular jumlasidandir. Shuningdek, jamiyat taraqqiyoti yo'lida barqaror jamoatchilik nazorati mexanizmini mustahkamlash, uning ijtimoiy-huquqiy "drayveri" hisoblangan jamoatchilik nazorati subyektlari vakolatlarini kengaytirish muammolari o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarda "Davlat organlari – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi", "Bizning bosh maqsadimiz – yurtimizda xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilishdan iborat", "Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart" tamoyillari asosida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik institutlari rolini kuchaytirishga qaratilayotganligi bejiz emas¹. Chunki, jamoatchilik nazorati samaradorligiga erishmasdan turib demokratik qadriyatlar ustuvor bo'lgan, inson huquq va erkinliklari ta'minlangan fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Shuning uchun, jamoatchilik nazorati "lokomotivi" bo'lgan subyektlar faoliyatining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini, usul va vositalarini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2019 yil 4 oktabrdagi PQ-4473-son "Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi islohotlar ustidan jamoatchilik nazorati samaradorligini, shuningdek, fuqarolarning demokratik o'zgartirishlardagi faolligini oshirishga oid

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Т.: О'zbekiston, 2021. –Б.82

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Qarori va O‘zbekiston Respublikasining 2018 yil 12 apreldagi O‘RQ-474-son “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni hamda mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jamoatchilik nazorati fenomenini falsafiy muammolarning maxsus yo‘nalishiga kiritib, uning ijtimoiy-huquqiy tomonlari o‘rtasidagi korrelyatsion aloqadorlikni qiyosiy-tipologik tahlil etish, o‘zgaruvchanlik dinamikasini matematik modellashtirish masalalarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib beruvchi alohida (aynan muammoning mohiyatiga qaratilgan) tadqiqotlar olib borilmagan bo‘lsada, ammo jamoatchilik nazorati tushunchasini tadqiqot obyekti sifatida belgilab, uni iqtisodiy, huquqiy, psixologik, pedagogik, sotsiologik xususiyatlari borasida bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Amerikalik olim Robert Kuper¹ ilmiy izlanishlarida jamoatchilik nazorati mexanizmining psixologik xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratib, uning ta’sirida davlat olib borayotgan siyosiy boshqaruvda qanday o‘zgarishlarga erishish mumkinligi ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, jamoatchilik nazorat texnikasini ishlab chiqish va uning ta’sir usullarini baholash modelini yaratish ustida ham tadqiqotlar olib borgan. Juliet Souza va Robert Nash² kabi tadqiqotchilar tomonidan jamoatchilik nazorati fenomenining davlat mulkini saqlashdagi rolga falsafaning xususiylik kategoriyasi asosida yondashuv ilgari surilgan. Shuningdek, James Filippis, Susan Saegert³lar taklif etgan konsepsiyada jamoatchilik nazorati mexanizmlari tasniflangan bo‘lib, bu tizim samaradorligini ta’minlash uchun uni rivojlantirishda huquqiy mezonlarga alohida urg‘u berish zarurligiga to‘xtaladi.

Rossiyalik professor O.S.Belokrylova⁴ tomonidan jamoatchilik nazorati mexanizmining iqtisodiy-sotsiologik jihatlarini o‘rtasidagi integratsiyalashuv samaradorligini topish yo‘llari ustida tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa, N.L.Peshin⁵ mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruv tizimida jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning huquqiy mexanizmlariga alohida e‘tibor qaratib, jamoatchilik nazoratini olib boruvchi subyektlarda huquqiy ongini oshirish orqali davlat organlari faoliyati ustidan kuchli va ta’sirchan ijtimoiy nazoratni o‘rnatish mumkinligini ko‘rsatadi.

1 Robert M. Cooper. Techniques of Public Control-An Appraisal of Methods / The Annals of the American Academy of Political and Social Science. Vol. 201, Ownership and Regulation of Public Utilities (Jan., 1939), pp. 1-16 (16 pages)

2 J.Souza, R.Nash. Private benefits of public control: Evidence of political and economic benefits of state ownership/Journal of Corporate Finance. Volume 46, October 2017, –P.232-247

3 J.Filippis, S.Saegert. Community Control and Development: The Long View: James De Filippis. Routledge, 2007. –401 p.

4 О.С.Белокрылова. Механизмы общественного контроля: направления повышения эффективности // Journal of economic regulation (Вопросы регулирования экономики) Vol.8. № 3. 2017. –С.57-70

5 Н.Л.Пешин. Публичный контроль в системе местного самоуправления: основания и особенности/ Вестник РУДН. Серия: Юридические науки. 2019. Т.23. No 3. –С.311–332

R.Arutyunyan¹ davlat boshqaruv tizimida jamoatchilik nazoratining o'zni masalasiga huquqiy fan tarmog'i yo'nalishida kompleks yondashib, davlat organlari tomonidan qabul qilinayotgan qonun va boshqa me'yoriy hujjatlarning amaliyotdagi natijadorligi ustidan o'rnatilgan jamoatchilik nazorati mexanizmlari hamda ularni amalga oshiruvchi institutsional tizim subyektlari vakolatlari borasida ilmiy-nazariy g'oyalar ishlab chiqilgan. A.L.Zvezdin, A.V.Novikov, A.S.Panteleyev, I.D.Xutinayev, M.V.Melnik, N.N.Kosarenkolar ijtimoiy-sotsiologik nuqtayi nazaridan jamoatchilik nazoratiga ijtimoiy mexanizm sifatida qaralib², uning davlat boshqaruvidagi o'rnini ochishga harakat qilingan.

O'zbekistonlik olim Ya.Ollamov³ ilmiy izlanishlarida davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda jamoatchilik nazoratining roli masalasiga sotsiologik jihatdan yondashish ko'proq kuzatilsa, A.A.Otajonov, M.M.Mamasiddiqov, X.T.Mamatov, E.K.Sabirov, Sh.A.Xoliqova⁴ tadqiqotlarida davlat idoralari faoliyati ustidan samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatish mexanizmlarini ishlab chiqish va takomillashtirishning huquqiy elementlari o'rin olgan. Ushbu tadqiqotchilarning ilmiy xulosalarida davlat organlari faoliyatining ochiqqligi va jamoatchilik nazoratini ta'minlashga doir qonunchilikni shakllantirish, fuqarolik sud ishlarini yuritishda jamoatchilik nazoratini ta'minlash vositalari va ularni rivojlantirish masalalari o'rin olgan. O.Musayev, O.Muhammadiyeva, R.Ruziyeva, U.Mahkamov, E.Mallayevalar⁵ tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda – davlat hokimiyati tizimida jamoatchilik nazoratining o'zni huquqiy jihatdan qanday maqomda bo'lishi kerakligi borasida fikr mulohazalar ilgari surilgan.

Yuqorida keltirib o'tilgan tadqiqot natijalaridan ham ko'rish mumkinki, biz ilgari surayotgan g'oyalar shakl va mazmun jihatidan ham, fan tarmog'i (Ijtimoiy-falsafa ixtisosligi) bo'yicha ham yetarlicha ochib berilmagan. Shu bois, ushbu tadqiqotda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etish hamda asoslash ko'zda tutilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "Urganch davlat universitetini 2017-2030 yillarda rivojlantirish dasturi"ning 2.4-bandiga asosan "Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi" doirasida bajarilgan.

¹ Р.Арутюнян. Общественный контроль в системе органов государственного управления. –М.: Кнорус, 2017. –176 с

² Государственный контроль в системе управления. Монография. –М.: НИПКЦ Восход-А, 2009; Ревизия и контроль. –М.: ИД ФБК-ПРЕСС, 2004; Контроль в социально-политической системе российского общества. –М.: Экономика и право, 2005.

³ Олламов Я. Давлат органлари ва фуқаролик жамияти институтлари: ўзаро муносабатларда мувожаатларнинг ўрни, жамоатчилик назоратининг роли ва мувожаатлар билан ишлашни такомиллаштириш муаммолари. –Т.: IJOD-PRESS, 2021. –672 б

⁴ Мамасиддиқов М.М. ва бошқ. Мамлакатимизда давлат идоралари фаолияти устидан самарали жамоатчилик назоратини ўрнатиш механизмларини ишлаб чиқиш ва такомиллаштириш. –Т.: Lesson press, 2020. –278 б

⁵ Musaev O. The role of public control in improving the system of public administration // Solid State Technology. Volume: 63 Issue: 6. Publication Year, Nashville, Tennessee, USA 2020. –P.96-104

Tadqiqotning maqsadi jamoatchilik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish, uning ta'sirchan targ'ibot texnologiyasini yaratish bo'yicha konstruktiv taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jamoatchilik nazoratining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlariga falsafiy fenomen sifatida qarab, uning rivojlanish qonuniyatlarini kompleks-sistemali o'rganish;

samarali jamoatchilik nazoratini ta'minlashga to'siq bo'layotgan ijtimoiy omillarni aniqlash;

jamoatchilik nazoratini tashkillashtiruvchi institutsional tizim subyektlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi elementlarini alohidalik, umumiylik va maxsuslik kategoriyalari kontekstida tahlil qilish;

jamoatchilik nazoratining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari o'rtasidagi korrelyatsion aloqadorlik tendensiyasini topish;

jamoatchilik nazoratining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini barqaror harakatga keltiruvchi motivlarni topish, ular o'rtasidagi funksional integratsiyalashuv xususiyatlariga aniqlik kiritish;

jamoatchilik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirish va targ'ibot texnologiyasini yaratishga doir amaliy takliflar berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoatchilik nazoratining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti jamoatchilik nazoratini ijtimoiy-huquqiy jihatdan yanada takomillashtirish mexanizmlarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik, mantiqiylik, taqqoslash, umumlashtirish, matematik modellashtirish, qiyosiy tipologik, faktorial tahlil, sotsiometrik (anketali) kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari imkoniyatlarini asoslashda ijtimoiy kategoriyalar (jamoatchilik eshituvi, muhokamasi, monitoringi) o'rtasidagi korrelyatsion (o'zaro ta'sir kuchi) aloqadorlikning miqdor va sifat o'zgarishlari dalillangan;

jamoatchilik nazorati samaradorligini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining funksional aloqadorlik, baholash va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyati mantiqiy isbotlangan;

jamoatchilik nazorati subyektlari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarishning strategik istiqbollari jamoatchilik eshituvi, muhokamasi, monitoringi amalga oshirish usullari imkoniyatlarini aniqlash orqali argumentlashtirilib falsafiy jihatdan asoslangan;

loqaydlik, beparvolik, korrupsion tizim, urug'-aymoqchilik kabi destruktiv omillarga qarshi jamoatchilik nazoratining qonuniylik, odillik, javobgarlikning muqarrarliligi kabi huquqiy tamoyillarini qo'llash mexanizmlarining zamonaviy pragmatik atributlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

yuqori samaradorlikka ega jamoatchilik nazorati mexanizmlarini ishlab chiqishga doir ilmiy-nazariy xulosalar umumlashtirilib, ularni amaliyotga tadbiiq etish usullari aniqlashtirilib;

jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga oshirish institutsional tizim subyektlari faoliyatini yanada takomillashtirishni asoslovchi pragmatik taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Jamoatchilik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlariga doir ma'lumotlar ilmiy tadqiqot xulosalariga, sohaga oid qonun va me'yoriy hujjatlarda keltirib o'tilgan vazifalarga, ilmiy jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan konsepsiyalardagi yangi konseptual g'oyalarga tayanilgani, ilmiy izlanishda obyektivlik va sistemaviylik prinsiplarining mavjudligi, tadqiqot natijalari manfaatdor tashkilotlarning amaliy faoliyatida aprobatsiyadan o'tkazilgani, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilganligi to'g'risida tegishli tashkilotlardan tegishli xulosalar olingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati jamoatchilik nazoratini ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlariga doir ilmiy tasavvurlarni yangi g'oyalar, argumentlar bilan boyitilgani, olingan natijalar asosida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalar, nazariy xulosa va amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Ma'naviyat va ma'rifat kengashi, "Yuksalish" umummilliy harakati, O'zbekiston teleradiokompaniyasi, Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatida hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalga oshirish institutsional tizim subyektlari faoliyatini yanada takomillashtirishni asoslovchi pragmatik tadqiqot natijalari asosida:

jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari imkoniyatlarini asoslashda ijtimoiy kategoriyalar (jamoatchilik eshituvi, muhokamasi, monitoringi) o'rtasidagi korrelyasion (o'zaro ta'sir kuchi) aloqadorlikning miqdor va sifat o'zgarishlari dalillanganligiga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining O'zbekiston Respublikasida 2021-yilga mana'aviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishga doir qo'shimcha chora tadbirlar dasturining II yo'nalishiga oid "Yangi O'zbekiston uchinchi renessans sari" g'oyasini ro'yobga chiqarishda "Viloyat, tuman (shahar) Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari raislariga joylarda soha samaradorligini oshirishga oid amaliy ko'mak berish ishlarini tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur loyihasini tayyorlashda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2022-yil 13-iyundagi 142-son ma'lumotnomasi). Natijada, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan aholi orasida sotsiologik tadqiqotlar, so'rovlar o'tkazish va

natijalar asosida manzilli ishlarni tashkil etishda ilmiy-nazariy manba sifatida xazmat qilgan;

jamoatchilik nazorati samaradorligini ta'minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining funksional aloqadorlik, baholash va tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish zaruriyatiga oid ilmiy xulosalari, taklif-tavsiyalardan "Yuksalish" umummilliy harakatining biznes vakillarining ehtiyojlari va talablarini o'rganish uchun ochiq muzokaralar o'tkazichni yanada yaxshilash va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha amaliy dastur loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan ("Yuksalish" umummilliy harakatining 2022-yil 16-iyundagi 03-08-201-son ma'lumotnomasi). Natijada, "Yuksalish" umummilliy harakatining davlat dasturiga kiritilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida ijro etilishi, ijobiy va salbiy natijalarni o'rganishi, amalga oshirilgan ishlarning sifatini baholashi, davlat organlari va boshqa mutasaddi tashkilotlar tomonidan taqdim etiladigan axborotlarni tahlil etish, ma'lumotlarni umumlashtirish, axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va ularni Prezident adminstratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga taqdim etishda ilmiy-nazariy manba sifatida xazmat qilgan;

jamoatchilik nazorati subyektlari faoliyatini tashkillashtirish va boshqarishning strategik istiqbollari jamoatchilik eshituvi, muhokamasi, monitoringi amalga oshirish usullari imkoniyatlarini aniqlashga hamda loqaydlik, beparvolik, korrupsion tizim, urug'-aymoqchilik kabi destruktiv omillarga qarshi jamoatchilik nazoratining qonuniylik, odillik, javobgarlikning muqarrarligi kabi huquqiy tamoyillarini qo'llash mexanizmlarining zamonaviy pragmatik atributlari aniqlashtirilganligiga doir ilmiy xulosalar, taklif-tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasi tomonidan uzatilgan "Xalq qabulxonalarida", "Kun mavzusi", "Millat va ma'naviyat" nomli radioeshittirishlar dastur ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali" davlat muassasasining 2022-yil 2-iyundagi 04-36-791-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyatning har bir a'zosida mamlakatimiz hayotida kuzatilayotgan o'zgarishlarga ongli munosabatda bo'lish, ijtimoiy sohada faol ishtirok etish (jamoatchilik nazoratini amalga oshirish) ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 8 ta (xususan, 6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 133 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlari, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta‘lim muassasasi hamda uning xorijiy ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning **“Jamoatchilik nazorati tushunchasi, imkoniyatlari, namoyon bo‘lish xususiyatlari”** deb atalgan birinchi bobida jamoatchilik nazorati tushunchasi, elementlari, funksiyalari prinsiplari jamoatchilik nazoratini yuzaga keltiruvchi zaruriy omillar, jamoatchilik nazoratini asoslovchi ilmiy-nazariy konsepsiyalarning ijtimoiy-falsafiy mazmun mohiyati, ijtimoiy makon va tarixiy zamon, alohidalik, maxsuslik va umumiylik, mohiyat va hodisa, shakl va mazmun, imkoniyat va voqelik kabi kategoriyalar nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Jamoatchilik nazorati tushunchasi, elementlari, funksiyalari va prinsiplari”** deb nomlangan birinchi paragrafida jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutsional tizim subyektlari, jamoatchilik nazorati tushunchasi, ijtimoiy nazorat elementlari, funksiyalari va prinsiplari ijtimoiy hayotda namoyon bo‘lishi hamda xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Har qanday tushunchaning mazmun-mohiyati va funksional ahamiyatini aniqlash, eng avvalo ularning ilmiy-nazariy asoslariga bog‘liq. Shu jumladan “jamoatchilik nazorati” kategoriyasining shakllanish va rivojlanish tarixi, turlari va ta‘rifini falsafiy asoslash, jamiyat taraqqiyotining bugungi kundagi ijtimoiy muammolarini aniqlash hamda bartaraf etish rolini oshirishga hizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda jamoatchilik nazorati institutiga nisbatan turli ta‘riflar berib kelinmoqda. Xususan, bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borgan rus olimlaridan A.V.Sokolov o‘zining “Hokimiyat va boshqaruv faoliyati to‘g‘risida ma‘lumot berish mexanizmlari va tamoyillari” nomli maqolasida jamoatchilik nazorati xususida munosabat bildirib, davlat hokimiyati organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishni – demokratiyaning asosiy belgisi sifatida qaraydi. Angliyalik olim Christopher Hood tomonidan taqdim etilgan nazariya bo‘yicha jamoatchilik nazorati – turli guruhlarini bir-biriga uyg‘unlashtiradigan, tartibga soluvchi yoki nazorat shaklini olib boruvchi jamoa tizimi deb hisoblaydi.

O‘zbekistonlik olimlardan B.I.Ismoilovning fikricha, jamoatchilik nazorati deganda, fuqarolik jamiyati institutlarining O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari va ularning birlashmalari, davlat hokimiyati organlari va boshqaruvi ustidan nazorati tushuniladi[60; 46-b.].

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr mulohazalar tahlili jarayonida ushbu fenomenga nisbatan bizda quyidagi ta‘rif yuzaga keldi: “Jamoatchilik nazorati – xalq manfaatlarini ishonchli himoya qiluvchi tizim bo‘lib, davlat organlari faoliyati ustidan qonuniy nazorat olib boruvchi, ya‘ni “Xalq ko‘zgusi” vakolatiga ega bo‘lgan jamoatchilik institutlarining umummilliy harakati hisoblanadi”.

Jamoatchilik nazoratini olib boruvchi subyektlar o‘z vakolat doirasida davlat organlarining ochiq hay‘at majlislarida ishtirok etib, jamoatchilik muhokamasini

o'tkazish, jamoatchilik eshituvi, jamoatchilik monitoringi, jamoatchilik ekspertizasi, jamoatchilik fikrini o'rganish vakolatlari yoritib berilgan. Shuningdek jamoatchilik nazoratini olib borish vakolatiga ega bo'lgan institutlar hamda subyektlar faoliyatini tartibga solish, ularning huquq va majburiyatlarini belgilab berishga qaratilgan quyidagi qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ustuvorligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda ishtirok etishning ixtiyoriyligi, jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning ommaviyligi va ochiqligi, jamoatchilik nazorati subyektlarining xolisligi va beg'arazligi, kabi bir qator prinsiplarga izoh berilgan

Ushbu bobning **“Jamoatchilik nazoratini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiruvchi omillar”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida bugungi kunda fuqarolik jamiyati institutlari jamoatchilik nazoratini amalga oshirish orqali fuqarolarning davlat bilan o'zaro samarali aloqasini ta'minlash, odamlarning kayfiyatini, mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biriga aylanganligi. Ammo, hanuz jamoatchilik nazoratini olib boruvchi subyektiv institutsional tizim sezilarli darajada samarador ishlay olmayotganligi, bu sohani rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan ishlarning ko'pligini ko'rsatmoqda. Jamoatchilik nazorati, fuqarolarning mamlakatda kechayotgan o'zgarishlarga munosabatini aniqlashning muhim vositalaridan biri ekanligi, albatta quvonarli holdir. Lekin, jamiyat va davlat manfaatlariga javob beradigan amaliy ishlarning “drayveri” hisoblangan ijtimoiy tizim samaradorligini oshiruvchi islohotlarni yaratish vaqti kelganligi, zero jamoatchilik nazoratiga bo'lgan ehtiyoj jamiyat yoki davlat boshqaruvi uchun birlamchi omil hisoblanib, undan ajralgan holda ijtimoiy hayotdagi munosabatlarni tartibga solib bo'lmaydi.

Mamlakatimiz ijtimoiy hayotiga “jamoatchilik nazorati” tushunchasi asrlar davomida shakllanganligi mustaqillikdan keyin O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrda o'tkazilgan qo'shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”ni qabul qilishga bag'ishlangan ma'ruzasida “O'zbekiston Respublikasida jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi Qonunni qabul qilish borasida ilgari surgan g'oyalari asosida, 2018 yil 12 aprelda “Jamoatchilik nazorati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunni (O'RQ-474-son) qabul qilindi.

Ushbu qonunning qabul qilinishi tom ma'noda O'zbekiston davlatchiligi tarixidagi ulkan voqelik bo'ldi.

Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, jamoatchilik nazorati turli davlatchiliklar tarixida jumladan Finlyandiyada 1951 yilda parlament tomonidan “Rasmiy hujjatlarni oshkor qilish to'g'risida”gi qonunni qabul qilishi ortidan kelib chiqadi, AQSHda Avraam Linkolnning “xalq kuchi bilan, xalq irodasi bilan, xalq uchun” kabi so'zlari, Amerikacha boshqaruv tarixida jamoatchilik nazorati tizimi uchun shior darajasiga ko'tariladi. Shuningdek ushbu paragrafda Buyuk Britaniya, Rossiya va boshqa davlatlar tarixida jamoatchilik nazoratini qadimiy ildizga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bobning uchinchi paragrafi **“Jamoatchilik nazoratini asoslovchi ilmiy-nazariy konsepsiyalar klassifikatsiyasi”** deb nomlanib insoniyat tarixida fuqarolik jamiyati qurishning birlamchi asosi bo‘lgan jamoatchilik nazorati fenomenining mazmun-mohiyatini tushunish, uni harakatga keltiruvchi mexanizmlar samaradorligini topish, unga ta’sir etuvchi omillar darajasini kamaytirish, undan xalq va davlat manfaatlarini bog‘lovchi konstruktiv asos sifatida foydalanish konsepsiyasini yaratish borasida ko‘plab tadqiqotlar olib borilayotganligi va ushbu konsepsiyalar ilmiy falsafiy jixatdan davrlashtirish asnosida izohlab o‘tilgan.

Shuningdek mamlakatimizda xalq manfaatlariga xizmat etuvchi demokratik boshqaruv tizimini yaratish, davlat boshqaruvida xalq ishtirokini oshirish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati institutini rivojlantirishga yo‘naltirilgan davlat islohotchiligida 3 ta konseptual asos ishlab chiqilib, ijtimoiy hayotga tadbqiq etilganligi izohlanib xalq manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan ushbu uch konsepsiyaning barchasida jamoatchilik ustuvorligiga erishish masalasi asosiy o‘ringa ko‘tarilganligining o‘zi ham, mamlakatimizda jamoatchilik fikriga bo‘lgan e’tiborning qanchalik yuqori mavqeda ega ekanligi ko‘rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamoatchilik nazoratini ta’minlashga yo‘naltirilgan ijtimoiy-falsafiy mexanizmlar metodologiyasi”** deb nomlangan ikkinchi bobida jamoatchilik nazoratini ta’minlashga xizmat etuvchi institutsional tizim subyektlari qo‘llayotgan mexanizmlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyati ochib berilib, jamoatchilik nazoratining ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Ushbu bobning birinchi paragrafi **“Jamoatchilik nazorati barqarorligini ta’minlashga ta’sir etuvchi ijtimoiy muammolar”** deb ataladi.

Bugungi dunyoning ko‘plab demokratik davlatlari tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, jamoatchilik nazorati faqatgina jamiyat uchun emas, balki davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini samarali tashkil etishda ham o‘ta muhim hisoblanadi Chunki, jamiyat rivojlangani, yuksak bosqichlarga ko‘tarilgani sari jamoatchilik nazoratiga bo‘lgan ehtiyoj ham oshib boraveradi. Jamoatchilik nazoratini ta’minlash uchun, avvalo jamiyat (xalq va davlat) bu o‘zgarishga tayyor bo‘lishi kerak bo‘ladi. Aniqroq aytganda, Xalqning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, har bir shaxsda qonunlarga va odob-axloq qoidalariga hurmat, milliy qadriyatlarga sadoqat, huquqbuzarliklarga nisbatan murossasizlik hissini uyg‘otish, kabi ijtimoiy muammolarga barham berilgan jamiyatda – jamoatchilik nazorati barqaror ishlaydi va o‘z natijasini beradi.

Shuningdek ushbu paragrafda Jamiyatning ijtimoiy hayotida korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish orqali, fuqarolarda shaxsiy mas’uliyat, daxldorlik hissini oshirib, loqaydlik, beparvolik kabi illatlarni kamaytirishga erishilishi asoslab berilgan.

“Davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta’minlash tadrijiyligiga erishishning ijtimoiy-huquqiy asoslari” deb nomlangan ikkinchi paragrafi bevosita Davlat organlari faoliyati ustidan kuchli jamoatchilik nazorati tadrijiyligiga erishish orqali, jamiyat qanday imkoniyatlarga ega bo‘lishi va tadrijiy funksional integratsiyalashuv tamoyilini yuzaga keltiruvchi qonun ustuvorligi, davlat olib borayotgan islohotlarning xalqchilligi, davlat organlari

faoliyatining shaffofligi, davlat organlarining har bir ishida adolatlilik prinsipini qaror topishi kabi asosiy mezonlarga qaratilgan.

Xorijiy davlatlar qonunchilig o'rganilgan va mamlakatimizda jamoatchilik nazorati subyektlariga davlat tomonidan berilayotgan vakolatlardan o'zini o'zi boshqarish organlari foydalana olmayotganligi, jamoatchilik nazoratini olib borishda mahalla, ommaviy axborot vositalari, partiya va boshqa fuqarolik institutlari "bir tan va jon" bo'lib aniq rejali faoliyat olib borishsa natijaga erishish mumkiligi bo'yicha taklif-tavsiyalar berilgan.

Ushbu bobning **"Jamoatchilik nazoratini ta'minlashga yo'naltirilgan ijtimoiy motivlar, huquqiy mexanizmlar hamda amalga oshiruvchi usulvositalar"** deb nomlangan uchinchi paragrafida jamoatchilik nazoratini olib boruvchi institutsional tizimning huquqiy mavqeini mustahkamlashga qaratilgan qonunchilikning rivojlanishi natijasida jamoat birlashmalari, ya'ni o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy harakatlar, kasaba uyushmalari, ijtimoiy fondlar, federatsiyalar, OAV va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatida erkinlik, adolatlilik, shaffoflik, xalqparvarlik kabi prinsiplarning birmuncha oshganligi, ammo hanuz fuqarolik jamiyati institutlarining davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini olib borish tizimida ayrim nuqsonlar uchrayapti.

Jumladan sansolarlik, byurokratik to'siqlar, davlat organlari vakillarining xonalariga fuqarolar qabul qilish tartibini "qiyinligi", ya'ni hech qanday to'siqsiz kirib chiqishlari uchun shart-sharoitlarning yetarli emasligi kabi salbiy illatlarga qarshi "jamoatchilik immunitetini" shakllantirish, bugunning dolzarb masalasidir. Shu nuqtai nazardan ushbu paragrafda ommaviy ahborot vositalarining jamoatchilik nazoratini olib borishdagi ahamiyati va uning ta'sirchan targ'ibot texnologiyasi yoritib berilgan.

Umuman olganda, bugungi globallashuv davrida jamoatchilik nazoratining nafaqat huquqiy mexanizmlari rivojlanmoqda, balki, ularning subyektiv elementlari ham taraqqiy etib bormoqda. Xususan, Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSH kabi g'arb mamlakatlarida jamoatchilik nazorati, uning ijtimoiy-huquqiy mexanizmlari birmuncha yuqori bosqichlarda ketmoqda

Meksikalik olim Diyego Valadesning "Контроль над властью" nomli monografiyasida – davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlashda alohida fenomen sifatida qarab, davlat va jamoatchilik nazoratining o'zaro nisbati masalasiga to'xtalib, nazoratni amalga oshiruvchi ijtimoiy-huquqiy mexanizmlar tasnifini ishlab chiqadi[58; 248-s.]. Bu tadqiqot natijalari jahon ilmfanida o'zgacha qarshi olinib, bu sohadagi dastlabki ishlardan ekanligi e'tirof etiladi.

O'zbekistonda jamoatchilik nazoratini ta'minlashning huquqiy asoslari mavjud bo'lib Davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida inson sha'ni va qadr-qimmati ta'minlanib, uning munosib hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratish, unga jamiyat boshqaruvida ishtirok etish huquqi va erkinligini berish, shaxsga o'z huquq va manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiruvchi subyekt sifatidagi ijtimoiy huquqlarini mustahkamlash zarurdir.

